

ЯНГИ БИНО МУБОРАК!

Сирдарё вилояти Янгиер шаҳар ФВ бўлими ёнгин-қутқарув қисмининг янги биноси фойдаланишга топширилди. Унда Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев, Сирдарё вилояти ҳокими А.Маҳмудалиев, Янгиер шаҳар ҳокими, сектор раҳбарлари, меҳнат фахрийлари, ёшлар, ФВБ раҳбарияти ва шахсий таркиби иштирок этди.



Янги бинода шахсий таркибнинг жанговар ва жисмоний тайёргарлигини ошириш учун ўқув минораси ва спорт майдонлари, ўқув синфи, маърифат хонаси, ошхона, ювенил хонаси, ётоқхона ташкил этилган. Ҳар томонлама қулай ва барча шароитларга эга бўлган мазкур бинодан техникаларни таъмирлаш хонаси, назорат ўтказиш жойи, ёзги ва қишки ошхона, омборхона, ўқув ва маънавий хоналари ўрин олган. Шунингдек, шахсий таркибнинг жисмоний ва жанговар тайёргарлигини ошириш, спорт билан шуғул-

ланиши учун ҳам имкониятлар яратилган.

Тадбир давомида "Вазир ва ёшлар" учрашуви ҳам ўтказилди. Унда ёшлар вазирдан ўзларини қизиқтирган саволларга атрофлича жавоб олдилар. Шунингдек, тадбирлар ФВБ Академиясида "Ватанга содиқ ёшлар" ҳарбий-ватанпарварлик ўқув йиғинида давом эттирилиб, тингловчиларга сертификатлар топширилди. Жараён давомида вазир тингловчи ёшлар билан мулоқот қилиб, уларнинг мақсад ва келгусидаги режалари билан танишди.

СУВ ТОШҚИНЛАРИГА ҚАРШИ...

Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев бошчилигида Тошкент вилоятининг Тошқинга қарши ҳудудий комиссияси ишчи гуруҳи томонидан Оҳангарон, Пискент ва Ўртачирчиқ туманлари ҳудудидан оқиб ўтувчи Оҳангарон дарёсининг қирғоқларини мустаҳкамлаш, сел, сув тошқинлари билан боғлиқ фавқулодда вазият-

ларнинг олдини олиш тадбирлари юзасидан ўрганиш ишлари олиб борилди.

Ўрганиш давомида дарёнинг муҳофаза минтақасида жойлашган аҳоли хўжаликлари, автомобиль ва темир йўл объектлари, шунингдек, "Тошкент" сув омбори кўздан кечтирилиб, мутасаддиларга зарур кўрсатма ва тавсиялар берилди.



Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

Мамлакатимиз ҳудудларидаги дашт ва чўллар, осмонўпар тоғлар, зилол сувли шарқироқ сойлару жўшқин дарёлар бор таровати билан баҳри дилингизни очади. Ушбу масканларга амалга оширилаётган ҳар бир саёҳат ёки зиёрат инсон қалбига ўзгача завқ бағишлайди.

ЭЪТИРОФ

Қўқон давлат педагогика институти талабалари Аҳмаджон Абдусаломов, Абдулбосид Асқаралиев, Зиёдулло Қосимов, Зуфар Хуррамов, Абдуллох Музаффаров ҳам Орол денгизига саёҳат қилишни орзу қилиб юришган экан. Ана шу мақсадларини амалга ошириш учун Қорақалпоғистон Республикасига йўл олишди. Улар жорий йилнинг 11 апрель куни Мўйноқ туманига етиб келишди. Рамазон ҳайити байрами муносабати мамлакатимизда эълон қилинган дам олиш кунларини жуда ажойиб, мароқли ўтказиш эди, уларнинг нияти. Афсуски, 12 апрель куни уларнинг оила аъзолари, яқинлари, дўстлари, курсдошлари қаттиқ хавотирга тушишди. Боиси, бу саёҳатчилар билан алоқа буткул йўқолди.

Шундан сўнг талабаларни қидирув-қутқарув ишлари бошланди. Унга Қорақалпоғистон Республикаси ФВБ ёнгин-қутқарув отрядининг бир

гуруҳ қутқарувчилари жалб қилинди. Қутқарувчилар ва бошқа тегишли мутасадди органлар томонидан олиб борилган қидирув-қутқарув ишлари, тезкор саъй-ҳаракатлар натижасида бедарак йўқолган ёшлар топилди. Фуқароларнинг соғлиқлари яхши, уларга ҳеч қандай тан жароҳатлари етмаган. Маълум бўлишича, Мўйноқ туманининг дашт-саҳро ҳудудида адашиб, оғир ҳолатга тушиб қолган эканлар. Уларнинг барчаси ота-оналари бағрига соғ-саломат қайтарилди.

Ушбу тезкор қидирув тадбирида фаол иштирок этиб, юзага келиши мумкин бўлган жиддий хавф-хатарнинг ўз вақтида олдини олган ФВБ раҳбарияти ҳамда жамоасига самимий миннатдорчилигимизни билдирамыз.

Қўнғиротбой ШАРИПОВ,
Олий таълим, фан ва
инновациялар вазири.

ТАҲЛИЛ ВА ТАВСИЯ

Фавқулодда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Х.Алибаев бошчилигидаги ишчи гуруҳ томонидан Навоий ҳамда Самарқанд вилоятларининг ФВБлари фаолияти ўрганилди.



Ўрганишлар давомида бошқармаларнинг барча шаҳар, туман бўлимлари, ёнгин-қутқарув қисмлари, шунингдек, "Навоий кон-металлургия комбинати" АЖ объектларида ёнгин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш марказлари ва Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш маркази шахсий таркибининг маънавий-маърифий, ахлоқий-руҳий тайёргарлик ҳолатига жиддий аҳамият берилди. Ўрганиш доирасида ўтказилган учрашувлар, давра суҳбатларида соҳани яна ривожлантириш борасида қатор таклифлар билдирилди. Қолаверса, масъулларга маънавий-маърифий ишлар, ижтимоий ҳимоя, моддий ва тиббий таъминот, хизмат самарадорлигини мунтазам ошириб бориш юзасидан топшириқлар берилди.

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратурасида маънавий-маърифий тадбир ўтказилди.

МАЪНАВИЯТ ДАРСИ

Унда дастлаб суд-ҳуқуқ тизимида кўп йиллик тажрибага эга, ҳозирда Жамоат хавфсизлиги университети профессори, ю.ф.д. А.Муҳаммадиев ўз ҳаётий тажрибалари билан ўртоқлашди.

Шунингдек, соғлом ва мустақил фикр, фаол фуқаролик позицияси, ҳалоп ва "Коррупция иллатига қарши биргаликда курашамиз" ғояси асосида фаолият олиб бориш ҳақида фикр-мулоҳазаларини билдириб ўтди.

Сўнгра ўзининг ёрқин истеъдоди, кўп қиррали ижоди билан танилган маданият ва санъат фидокори, каратэ бўйича 4-ДАН соҳиби В.Шамшиев билан мулоқот бўлиб ўтди. Сўз устаси ҳаётий ғаномалари, шеърлари, фаолиятидаги қизиқарли воқеалар ва устозлари берган насиҳатлари билан тадбирга янада кўтаринки руҳ бағишлади.

Тадбир давомида Республика ихтисослаштирилган наркология илмий-амалий тиббиёт маркази Тошкент шаҳри филиали нарколог шифокори С.Интизорова соҳада маънавиятнинг ўрни хусусида сўз юритди.

Бундан ташқари, китобхонликни кенг тарғиб қилиш мақсадида ходимлар учун китоблар ярмаркаси ташкил этилди.

Ойбек ЮЛБАРСОВ,
Республика ҳарбий прокуратураси бўлим бошлиғи, адлия полковниги.

ЙЎРИҚНОМАЛАР БЕРИЛДИ

ФВВ ҳамда Наманган вилояти ФВБ ходимлари иштирокида тезкор йиғилиш бўлиб ўтди.



Унда вилоят ҳудудий қўйи тизимининг аҳоли ҳамда ҳудудпарни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш, фуқаро муҳофазаси ва ёнғин хавфсизлиги соҳасида комплекс текшириш ва амалий ёрдам кўрсатиш тадбирлари давомида хизмат интизоми ва қонунчиликка риоя қилиш, коррупция ҳамда тамағирлик ҳолатларига йўл қўймаслик, бошқа кўнгилсиз ҳолатларнинг олдини олиш юзасидан вазирлик масъул ходими томонидан йўриқномалар берилди.

Абдураҳмон ҲАМИДОВ,
Наманган вилояти ФВБ ШХБ бошлиғи, подполковник.

ЎРГАНИШ

Наманган вилояти ФВБ томонидан тегишли хизматларда ўрганишлар ўтказилди. Унда Санитария-эпидемиология, осойишталик ва жамоат

саломатлиги, Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши, Гидрометеорология ҳамда Ветеринария ва чорвачиликни ривож-

МУЗЕЙГА САЁҲАТ

"9 май – Хотира ва қадрлаш куни" муносабати билан Тошкент ҳарбий прокуратураси ва Мудофаа вазирлигига қарашли ҳарбий қисмлар ҳамкорлигида "Хотира — улуг қадрият" шиори остида ватанпарварлик тадбири ўтказилди.



Хусусан, Тошкент вилояти Чиноз туманидаги 5-, 13-, 14- ва 42-сонли мактаблар ўқувчилари учун пойтахтимиздаги "Ғалаба боғи" ёдгорлик мажмуаси ҳамда "Шон-шараф" давлат музейига саёҳат уюштирилди.

Унда ёшлар Иккинчи жаҳон уруши даврида ота-боболаримизнинг тинчлик йўлидаги қаҳрамонликлари ва бу даврда

Ўзбекистон халқининг бағрикенглиги, меҳмондўстлиги ва жасорати акс этган маълумотлар билан яқиндан танишдилар.

Алишер ҚУРБОНОВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия подполковниги.



МУЛОҚОТ

Мудофаа вазирлигига қарашли Тоифаланган объектларни қўриқлаш қўшинлари қўмондонлигида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш масалаларига бағишланган очик мулоқот бўлиб ўтди.

Онлайн ва офлайн ўтган тадбирда Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурорининг ўринбосари Қ.Исроилов, қўмондон Ж.Якубов, шунингдек, Тошкент ҳарбий прокуратураси, Тошкент шаҳар ИИББ ва қўмондонлик тизимидаги ҳарбий қисмлар масъуллари иштирок этдилар.

Сўз олганлар шиддат билан ривожланиб бораётган ҳозирги замонда жиноятчилик ва турли хатарларга қарши доимо сергак ва огоҳ бўлиш зарурлиги, шу билан бирга, қонунчиликда бу борада мавжуд янгилликлар ҳақида тўхталиб ўтдилар.

Яқунда мавзуга доир видеороликлар намойиш этилди.

Азиз АЛИМОВ,
Республика Ҳарбий прокуратураси бўлим ҳарбий прокурори, адлия подполковниги.

пантириш бошқармалари, шунингдек, Наманган сув таъминоти МЧЖ атроф-муҳитни лаборатория нозирати кузатув тармоғи томонидан аҳоли ва ҳудудпарни табиий ва техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш

ҳолатлари бошқарма РК ва ТБМТЭ бўлими ходимлари томонидан ўрганилди.

Рустам ЭГАМБЕРДИЕВ,
Наманган вилояти ФВБ бўлим етакчи мутахассиси.

"9 май – Хотира ва қадрлаш куни" байрами яқинлашмоқда. Бу онларда уруш фахрийларининг ҳолидан хабар олиш тадбирлари янада жадал тус олади.

ХОТИРА ВА ҚАДР

Шундай йўқловларнинг галдаги манзили Зомин тумани "Дуоба" қишлоғи "Еттикечув" маҳалласида истикомат қилувчи Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси Ҳолбек Равшанов хонадони бўлди.

Учрашув давомида Жиззах ҳарбий прокуратураси, гарнизон қўмондонлиги ва туман мудофаа ишлари бўлими вакиллари ҳамда бир гуруҳ ёшлар Ҳолбек бобо билан дилдан суҳбат қурдилар.

Файрат АТОЖОНОВ,
Жиззах ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия майори.

Судья минбари

ФАРЗАНДИНИ

"УНУТГАН" ОТА

Х.Қ. ширин орзу-ниятлар билан А.С.га уйланади. Орадан йиллар ўтиб, ўғилли бўлишди, аммо фарзанд туғилиши оила ришталарини мустаҳкамлай олмади. Рўзгордаги майда-чуйда гап-сўзлар бора-бора оипанинг барбод бўлишига олиб келди.

Энг ёмони, ота фарзандини унутади. Қийин аҳволда қолган она алимент ундириш мақсадида судга мурожаат қилади. Фуқаролик ишлари бўйича Чирчиқ туманлараро судининг буйруғи билан Х.Қ.га вояга етмаган фарзанди учун ҳар ойда даромадининг тўртдан бир қисми миқдорда алимент ундириш белгиланган. Аммо ота суднинг буйруғини бажармаган. Х.Қ. суд ижрочилари томонидан вояга етмаган фарзандига алимент тўлаши шартлиги тўғрисида бир неча бор огоҳлантирилган. Бироқ, яна у фарзандининг моддий таъминотига эътиборсиз қараб, суд буйруғини бажармаганлиги учун отага нисбатан ҳужжатлар тегишли тартибда расмийлаштирилиб, судга ўтказилади. Х.Қ.га жиноят ишлари бўйича Яшнобод туман суди томонидан 15 сутка маъмурий қamoқ жазоси тайинланган. Ота суд томонидан фарзанди учун мажбурий ундирилиши керак бўлган 23.976.516 сўм миқдордаги алиментни тўлашдан қасддан бўйин товлаган. Турли баҳоналар билан фарзанди таъминоти учун белгиланган суммани бермаган. Дастлаб маъмурий жавобгарликка тортилиб, кетма-кет огоҳлантиришлардан тегишли хупоса чиқармаганлиги сабабли отага нисбатан жиноий иш қўзғатилади.

Яқинда мазкур жиноий иш судда кўриб чиқилди. Суднинг ҳукми билан Х.Қ. бир йил муддатга озодликдан маҳрум этилди. Шунингдек, судланувчидан жабрланувчи она фойдасига 11.011.180 сўм ундириш белгиланди.

Ҳаётда баъзида ана шундай нохуш ҳолатлар учраб турганлиги афсусланарлидир. Ўз фарзандлари тақдирига бу қадар бефарқ қарайдиган оталарнинг учраб туриши кечирилмайдиган ҳолат. Ундайларга нисбатан қонунчиликда қатъий жавобгарлик чоралари белгиланган.

Матчонбой МАТЧАНОВ,
Жиноят ишлари бўйича Яшнобод туман судининг судьяси.

МАЗМУНЛИ СУХБАТ

Қораўзак тумани ФВ бўлими томонидан 2-сектор ҳудудида ёшлар билан учрашув ташкил этилди.

Унда Қорақалпоғистон Республикаси ФВБ бошлиғи ўринбосари майор Ж.Эсенбаев, туман прокурори 2-сектор раҳбари адлия маслаҳатчиси подполковник Б.Аберкулов, туман ФВ бўлими бошлиғи майор Д.Даулетбаев, туман камбағалликни қисқартириш ва бандликка кўмаклашиш бўлими бошлиғи

А.Аллашов ҳамда ИИБ профилактика инспекторлари қатнашдилар. Унда ёшларнинг муурожаатлари эшитилиб ҳал этиш юзасидан тегишли ташкилотларга йўналтирилди.

Очиқ мулоқот тарзида ўтган тадбирда ҳар бир маҳаллада ёшларга деҳқончилик қилиш учун ер майдонлари ажратиб

бериш масаласи кўриб чиқилди. Бу борадаги ишлар бошлаб юборилган бўлиб, ёшларга озик-овқат экинлари етиштириш учун ер майдонлари ажратиб беришда амалий ёрдам кўрсатилди.

Учрашув давомида ёшларнинг муаммо ва таклифлари ҳам тингланди. 10 нафардан ортиқ ёшларнинг муурожаатлари қабул қилиниб, ижроси бўйича масъулларга тегишли кўрсатмалар берилди. Ёшлар муаммолари билан ишлаш бўйича туман штабига муурожаатлар ижросини назорат қилиб бориш вазифаси юклатилди.

Учрашув якунида мактаб ўқувчилари учун ёнгин-қутқарув техник асбоб-анжомлари кўргазмаси ташкиллаштирилиб, ўқувчиларнинг саволларига батафсил жавоб берилди.

А.ДЖАЛЕЛОВ,
Қораўзак тумани ФВ бўлими П ва НБ катта инспектори,
катта лейтенант.



Хоразм телевидениесига вилоят ФВБ ходимлари иштирокида “Очиқ мулоқот” кўрсатувининг навбатдаги сони намойиш этилди.

ЖОНЛИ ЭФИР



Бошқарма мутахассислари томонидан фавқулдда вазиятлар ва ёнгинларнинг олдини олиш, содир бўлганда қисқа муддатларда бартараф этиш, соҳага оид қонунчиликдаги янгиликлар ва шу каби масалалар бўйича ахборот берилди. Жонли эфир давомида вилоят аҳолисидан келиб тушган турли мазмундаги саволларга жавоб берилди.

Мирзожон КУРБАНОВ,
Хоразм вилояти ФВБ бўлим бош инспектори, капитан.

ОФАТЛАРГА ҚАРШИ

Жиззах шаҳридаги заиф кўрувчи болалар учун ихтисослаштирилган “Нурли маскан” мактаб-интернатида “Зилзила ва бошқа офатлар хавфи таҳдиди юқори бўлган Марказий Осиё давлатларининг фавқулдда вазиятларга бардошлилигини таъминлашга қаратилган маҳаллий ва миллий салоҳиятларини мустаҳкамлаш” лойиҳаси доирасида вилоятнинг лойиҳавий мактаблари билан ўқув-семинари ўтказилди.



Тадбирда ФВБ Фуқаро муҳофазаси институти профессор-ўқитувчилари, лойиҳа билан қамраб олинган 2 та мактаб педагог жамоаларининг вакиллари, Жиззах шаҳар мактаб ва мактабгача

таълим бўлими вакили, ЎҚЯОЖ вилоят бўлими вакили, кўнгилчилар ва вилоят ФВБ мутахассислари иштирок этдилар.

Б.ҚОБИЛОВ,
Жиззах вилояти ФВБ ходими.

Агар Муҳаммад Юсуф шеърларини жамлаб, бир ном билан умумлаштирсан, уни “Ўзбек халқига қасида” деб аташ мумкин бўлар эди. Чунки ҳар бир шеър мисраси ортида ўзбек, унинг дарди, қувончи, ташвиши, меҳри, орзумидлари, бутун ҳаёти гавдаланади.

ШОИРГА ЭҲТИРОМ

Шоир Ўзбекистон аталмиш юрт фарзанди эканлигидан чексиз ғурурланарди. У миллатнинг чинакам фидойи фарзанди эди. Меҳр ва самимият билан “Муҳаммад Юсуфман Ўзбекистондан”, дея ўзбеклигидан фахрланар, бошқаларни ҳам шунга ундар эди.

Ўзбекнинг ардоқли шоири Муҳаммад Юсуф кўплаб жадид адабиётининг намояндаларига бағишлаб мадҳиялар ёзган. Улар тилидан сўзлаган, орзу-истакларини намоеён қилган.

Дилноза МАДРАҲИМОВА,
Деҳқонобод тумани
69-умумтаълим мактаби ўқитувчиси.



МОНИТОРИНГ

Сурхондарё вилояти ФВБ фавқулдда вазиятлар мониторинги ва таҳлил хизмати ходимлари иштирокида Фуқаро муҳофазаси институти базасида малака ошириш ўқув-семинари бўлиб ўтди.



Тадбир давомида таҳлилий тадқиқотларни ўтказиш алгоритми, Фавқулдда вазиятлар вазирлиги тизимида тайёрланадиган таҳлилий ҳужжатларнинг асосий турлари, уларнинг умумий тузилиши ва тайёрлашда риоя этиладиган қатъий қоидалар хусусида айтиб ўтилди.

Тадбир якунида фавқулдда вазиятлар мониторинги ва таҳлил хизмати шахсий таркиби ва вазирнинг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник С.Зупаровнинг учрашуви ўтказилиб, хизматда юзага келган хато ва камчиликлар муҳокама қилинди.

Ш.ЖУМАЕВ, Сурхондарё вилояти ФВБ ФВМ ваТХ бошлиғи, майор.

ЖАМҒАРМАДА ТАРҒИБОТ

“Навоий кон-металлургия комбинати жамғармаси” давлат муассасаси ишчи ходимлари учун тарғибот тадбирлари ўтказилди.

Тадбирлар давомида иштирокчиларга ёнгинлар, овқатдан ҳамда ис газидан заҳарланиш ва яна қатор фавқулдда вазиятлар содир бўлганда, тўғри ҳаракатланиш юзасидан тавсиялар берилиб, тарғибот материаллари тарқатилди. Шунингдек, корхона ҳудудида ёнгин ўчириш техникаларининг кўргазмалари намойиши ҳам ташкил этилди.

Маъруфжон ҲАЙИТОВ,
“НКМК” ДК Ёнгин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази гуруҳ бошлиғи, катта сержант.

Суннатилло РАҲМАТОВ
инспектор, капитан.

Республикада Туркистон термити кўпроқ тарқалган бўлиб, уларнинг иморатларга келтираётган зарари кундан-кунга ортиб бормоқда. Сўнгги тадқиқотларда термитлар бир уйда 25 мингдан 5 миллионгача яшаши, гуруҳларга қараб, 6 йилдан 30 йилгача умр кўриши мумкинлиги, она термит бир суткада 43 мингтагача тухум қўйиши аниқланган.

ТЕРМИТЛАР

Бошқа ҳашаротлар қилиб бўлмайдиган маҳсулотлар термитлар учун асосий озуқа ҳисобланади. Бизнинг ҳудудларда термитларнинг 16 метр ер сатҳидан чуқурлик-кача тарқалганлиги аниқланган бўлиб, улар сувни ер остидан олиб чиқишади. Иморат қурилиши назарда тутилган жойларда термитлар маконини йўқ қилиш учун дастлаб, у

ерга бир неча бор сув юбориш керак. Сув тупроқ юзида бир неча кун тўлдириб турилиши шарт.

Ҳозирги кунда саксовул, юлғин ўсадиган кўпчилик ўринларнинг термитлар билан кучли зарарланиши, халқнинг бу ўсимликлардан ўтин сифатида фойдаланиш мақсадида ўз турар жойларига олиб борилиши термитларнинг тарқалишига сабаб бўлмоқда. Иморатга термитларни ташқаридан киргизмаслик учун фундаментнинг сиртидан эни 1 метр, чуқур-

лиги 80 см қилиб траншея қўйиш керак. Ундан чиққан бўш тупроққа севин деган перепаратнинг суспензияси, ёки инсектополимер билан аралашган 1,0-1,5 фоиз хлорофоснинг сувдаги эритмасини 1 квадрат метрга 400 грамм ҳисобда сеппилиб, кейин траншеяга қайта солинади.

Сарвар САЪДУЛЛАЕВ,
Қорақалпоғистон Республикаси Тўрткўл тумани ФВ бўлими бошлиғи ўринбосари, майор.

AMALIY TARZDA

FVV Akademiyasi kursantlarining egallagan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etish maqsadida, FVV Fuqaro muhofazasi instituti Favqulodda vaziyatlar Simulyatsiya markazining moddiy o'quv bazasida "Favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ularni prognoz qilish va oldini olish" mavzusida amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

Mashg'ulotda akademiya Tillar kafedrasida katta o'qituvchisi, podpolkovnik M.Badalbayeva, bir guruh Akademiya kursantlari, FMI professor-o'qituvchilari hamda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili fakulteti, Yoshlar

masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini N.Kadirova, professor-o'qituvchilar, tyutorlar va talabalar ishtirok etdilar.

O'quv xonalari bo'ylab ekskursiyalar davomida tashkil etilgan mashg'ulotlarda kur-

santlar va talabalar uchun favqulodda vaziyatlar sohasidagi hamda fuqaro muhofazasiga oid maxsus-texnik terminlarni ingliz tilida chuqur o'zlashtirish imkoniyati amaliyot bilan bog'liq holda yuzaga chiqarildi.

Markaz mutaxassislari, kursantlar tomonidan berilgan ma'lumotlar orqali favqulodda vaziyatlarga tushib qolganida to'g'ri harakatlanish, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ularning talafotlarini bartaraf etish, favqulodda vaziyatlar natijasida shikast yetganda o'z-o'ziga va o'zaro birinchi tibbiy yordam berish, xavfli vaziyatlarni oldindan



ko'ra bilish, baholash va ular-dan muhofazalanish yo'llarini topishni o'rganish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti profes-

sor-o'qituvchilari va talabalarining favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga oid ko'nikmalari mustahkamlandi.

FVV Akademiyasi
axborot xizmati.

Samarqand viloyati Axborot-kutubxona markazida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi Samarqand viloyati kengashi bilan hamkorlikda viloyat FVB va uning tarkibiy tuzilmalari yosh harbiy xizmatchi va xizmatchilari o'rtasida "Eng yaxshi yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi o'tkazildi.

G'OLIBLAR ANIQLANDI



Mazkur tanlovda ishtirokchilar 3 ta bosqichda o'z bilim salohiyatlarini namoyon etdilar. Yakuniy natijalarga ko'ra, 3-o'rinni Oqdaryo tumani FV bo'limi qutqaruvchisi B.Luqmonov, 2-o'rinni Payariq tumani FV bo'limi qutqaruvchisi J.Eshboyevlar egallagan bo'lsa, viloyat FVB xodimi leytenant O.Ismoilov

1-o'ringa munosib ko'rildi va respublika bosqichi yo'llanmasiga ega bo'ldi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Ilhom BOQIYEV,
Samarqand viloyati FVB
axborot xizmati boshlig'i,
katta leytenant.

MALAKA SINOVU

G'uzor tumani hududidagi yirik ishlab chiqarish korxonalarining birida soha vakillari va hamkor xizmatlar bilan birgalikda maxsus-tatik o'quv-amaliy mashg'uloti o'tkazildi.

Unda sodir bo'lgan shartli yong'in haqida dastlabki ma'lumotlar haqida barcha tezkor xizmatlarga xabar berilib, ogohlantirildi. Zudlikda ushbu manzilga yong'in-qutqaruv texnikalari jalb qilinib, qutqaruvchilar tomonidan yong'inni bartaraf etish, jalb qilinadigan kuch-vositalarni to'g'ri

yo'naltirish, jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amaliy tarzda ko'rsatib o'tildi.

Shohjahon MUHAMMADIYEV,
Qashqadaryo viloyati
FVB xodimi,
kichik serjant.



MAHORAT BAHSI

FVV Akademiyasida o'qitilayotgan fanlarning amaliy organlar faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash maqsadida IIV Akademiyasi "Kriminalistik ekspertizalar" kafedrasida katta o'qituvchisi podpolkovnik I.Haydarov ishtirokida Akademiyaning 3-batalyon kursantlari bilan "Yong'inning tergovga qadar tekshiruv va ekspertizasi" fanidan "Yong'inlar bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etish maqsadida tayinlanadigan kriminalistik ekspertizalar va ular orqali hal qilinadigan savollar" mavzusida mahorat darsi tashkil etildi.

Ma'ruzachi dastlab, o'z so'zida ko'zdan kechirishning protsessual asoslari, bosqichlari, turlari, ko'zdan kechirish hamda ahyoviy dalillarni olib qo'yish bayonnomasini tuzish va to'ldirish tartibi, shuningdek, ko'zdan kechirish davrida tekshiruvni amalga oshirayotgan mansabdor shaxs tomonidan e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlari, foto va video apparaturalarning turlari hamda ularning maqsadi, suratga olishning usullari va turlari, voqea joyini ko'zdan kechirish joyida aniqlangan qo'l-barmoq izlarini suratga olishning o'ziga xos jihatlari, foto jadval tayyorlash tartibi xususida tushunchalar berib o'tdi.

Artyom LITYAGA,
FVV Akademiyasi kafedra boshlig'i, podpolkovnik.

Buxoroda viloyat umumta'lim maktablari o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klublarining viloyat bosqichi musobaqalari o'tkazildi.

VILOYAT BOSQICHI YAKUNLANDI



Musobaqalarning yakuniy natijalariga ko'ra Buxoro shahar 19-umumta'lim maktabi jamoasi 1-o'rinni, Qorovulbozor tumani 2-umumta'lim maktabi jamoasi 2-o'rinni, Kogon tumani 7-umumta'lim maktab jamoasi esa 3-o'rinni egalladi.

G'oliblar viloyat FVB, Buxoro harbiy prokurori hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashining diplom, esdalik sovg'alar hamda kubok bilan taqdirlandilar.

N.NURULLAYEVA,
Buxoro viloyati FVB axborot xizmati xodimi.

Olmazor tumani Qoraqamish 2/4 dahasidagi Toshkent Farmatsevtika Institutiga qarashli akademik litseyida favqulodda vaziyat va yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida amaliy-taktik mashg'ulot o'tkazildi.

FOYDALI SABOQ

Unda tuman FV bo'limi xodimlari tomonidan favqulodda vaziyatlar, xususan, zilzilalar vaqtida qanday tezkor choralar ko'rish kerakligi, bunday vaqtda odam sarosimaga tushmay, o'zini o'zi boshqara olishi, darhol xavfsiz joyga o'tishi lozimligi, binoni zudlik bilan tark etish zarurligi eslatildi. Shu bilan birga, ichki eshiklar o'rni, stol, karavot, stanoklar osti bo'lsa, uyinging eng xavfli joylari ichki va tashqi deraza ostilari, devorlarning oyna bilan qoplangan qismlarida jon saqlab qolish yo'llari aytib o'tildi.

J.PO'LATOV,
Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.

MAXSUS-TAKTIK O'QUV

Buxoro viloyati FVB tomonidan Buxoro garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi bilan hamkorlikda safarbarlik chaqiruv rezervidagi muddatli harbiy xizmatni o'tash qismida favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan maxsus-taktik o'quv mashqlari o'tkazildi.

Tadbirlar davomida boshqarma xodimlari tomonidan bahor mavsumiga xos bo'lgan favqulodda vaziyatlar, zilzila, yong'in, ovqatdan zaharlanish va boshqa dolzarb mavzularda suhbatlar o'tkazildi. Bunday vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, evakuatsiya yo'laklarini bilish va ularni doimiy shay holatda saqlash maqsadida ortiqcha, keraksiz buyumlar bilan to'sib qo'ymaslik, vahima va sarosimaga tushmasdan o'ziga va o'zgalarga yordam berish bo'yicha tushunchalar berildi.

I.MATCHANOV,
Buxoro viloyati FVB
boshlig'ining birinchi o'rinbosari –
Shtab boshlig'i,
podpolkovnik.

YAKUN VA REJALAR

Namangan viloyati FVB-da birinchi chorak faoliyati bo'yicha hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda boshqarma boshlig'i, boshliq o'rinbosarlari, boshqarma harbiy xizmatchilari, Namangan shahar va barcha tuman FV bo'limlari boshliqlari, o'rinbosarlari, tezkor bo'linma, aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha inspektorlari hamda shahar va tuman FV bo'limlari yong'in-qutqaruv qism boshliqlari ishtirok etdilar.

Yig'ilishda boshqarma boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov chorak davomida amalga oshirilgan tad-



birlarlar xususida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, Namangan shahar va barcha tumanlarda yong'in hamda boshqa tus-

da favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi.

Qahramon SATTOROV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.



O'QUV

Samarqand shahridagi "Sam Avto" MCHJ QK ga qarashli bojxona omborxonasida "Yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish tadbirlarini xavfsiz tashkil etish" mavzusida ko'rgazmali o'quv-seminari o'tkazildi.

Tadbir davomida amaliy bilimlar sinovdan o'tkazilib, mutasaddilarga zarur tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Yo'ldosh UMIRZOQOV,
Samarqand viloyati FVB
xodimi, kapitan.

HISOBOT

"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasida 2024-yilning I choragidagi tadbirlar yakuni va II chorakdagi ustuvor vazifalar yuzasidan hisobot yig'ilishi o'tkazildi.

Tadbir davomida boshqarma boshlig'i, polkovnik H.Bobonov tomonidan joriy yilning I choragida aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xodimlar uchun shart-sharoit yaratish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilganligi aytilib o'tildi. Shuningdek, boshqarma boshlig'ining o'rinbosarlari, bo'lim, bo'linma boshliqlari hamda otryad komandirlari ham ma'ruza qilishdi. Qolaversa, shaxsiy tarkib tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar va erishilgan yutuqlar haqida ham so'z yuritildi.

Yig'ilish yakunida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va mulohazalar bildirildi.

M.MINGBOYEVA,
"Qamchiq" MQYOQB xodimi,
kichik serjant.



Qarshi shahridagi 17-maxsus maktabda mutaxassislar tomonidan eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslar va pedagog xodimlar uchun o'quv seminari tashkil etildi.

SEMINAR

Tadbir FVV va UNICEF tashkiloti o'rtasida imzolangan loyihaviy dastur asosida tashkil etilib, asosiy maqsadi ta'lim muassasalarining, ayniqsa, inklyuziv ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari hamda ko'p sonli mehnat jamoasini turli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish borasidagi bilim-ko'nikmasini oshirishga qaratildi.

Seminar yakunida pedagog va tarbiyalanuvchi bolajonlar bilan qutqaruv xizmati texnikalari va maxsus anjomlari tanishtirildi. Surdo-tarjimon orqali ulardan foydalanish tartiblari o'rgatildi.

I.MUQIMOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
HFXO'M o'qituvchisi.



YOSHLAR ISHTIROKIDA



Chust tumani FV bo'limi tomonidan bo'limga birlashtirilgan 12 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi yoshlar bilan manzilli ish tashkillashtirilib, uyushmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka chek qo'yish maqsadida ko'plab profilaktik va ko'rgazmali tadbirlar o'tkazilib kelinayapti. Olmos shaharchasi tarkibiga kiruvchi 8 nafar mahalla yoshlari o'rtasida sportning mini futbol turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Bahslar yakunida g'olib va sovrindorlarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Bekzod G'ULOMOV,
Chust tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, katta leytenant.

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida o'tkazilgan "Ochiq eshiklar kuni" tadbirida yoshlarni vatanparvarlik, xizmat burchiga sodiqlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi.

"OCHIQ ESHIKLAR KUNI"



Shuningdek, odob-axloq asoslari xususida so'z yuritildi. Shuningdek, chuqur kasbiy bilimlar va mustaqil tafakkurini rivojlantirish, yong'in qarshi kurash choralari, yong'in o'chirish va qutqaruv texnikalari, yong'in jarayonini to'xtatishning

U.UMAROV,
FVV BT va MOM qism
boshlig'i, podpolkovnik.
J.XOLMURODOV,
katta o'qituvchi,
mayor.

SUV OMBORIDA MASHQ

Qamashi tumanidagi "Qamashi" suv omborida o'quv mashqi o'tkazilib, obyektning barcha mehnat jamoasi o'z vazifasiga ko'ra, zarur harakatlarni amalda bajardilar.



Tadbir davomida shartli yong'inni bartaraf etish uchun jalb qilinadigan kuch-vositalarni to'g'ri yo'naltirish, jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari ko'rsatib o'tildi.

Mashg'ulot yakunida, obyekt mas'ul xodimlari va te-

gishli yo'nalish ishchi-xodimlari ishtirokida muhokama yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Sh.DIYAROV,
Qamashi tumani FV bo'limi
boshlig'i, podpolkovnik.
F.QODIROV,
Qashqadaryo viloyati FVB
bosh inspektori, kapitan.

"IQBOL"DA TADBIR

Bektemir tumani FV bo'limi tomonidan tumanning "Iqbol" MFY yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektorlari ishtirokida tadbir tashkil etildi.

Yig'ilish davomida mahalla aholisiga tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni muhofaza qilish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi, nosoz gaz uskunalaridan foydalanmaslik va yong'inlarning oldini olish, tabiiy ofatlarda to'g'ri harakat qilish, yer ko'chkilari, o'pirilishlar, surilishlar, zilzilalar, botulizm, o'tkir yuqumli kasalliklarning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari amalga oshirildi. Yong'in sodir bo'lganda harakat qilish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish, qolaversa, qurilish jarayonlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish lozimligi aytilib o'tildi.

Doniyor KENJABAYEV,
Bektemir tumani FV bo'limi P va NB katta inspektori, kapitan.



Chiroqchi tumanidagi Ixtisoslashtirilgan 1-umumta'lim maktabida "Fuqaro muhofazasi" tadbiri bo'lib o'tdi.

PROFILAKTIKA

Tadbir davomida ta'lim muassasasining doimiy tarkibini evakuatsiya qilish, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ularning oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, o'quvchilarning fuqaro muhofazasiga oid ijodiy ishlari ko'rgazmasini tashkil etishga asosiy e'tibor qaratildi.

Shuningdek, tumandagi "Baraka" mahallasida "Quturish kasalligining oqibatlarini va undan saqlanish choralarini" mavzusida amaliy tadbirlar ham bo'lib o'tdi.

Unda quturish kasalligining oldini olishda kechiktirib bo'lmaydigan zarur chora-tadbirlar to'g'risida, shuningdek, xonadonda it va mushuk saqlash qoidalari, ularning vaksinatsiyasi to'g'risida ma'lumot berildi.

Anvar MO'MINOV,
Chiroqchi tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.
Sherzod KELDIYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB inspektori, podpolkovnik.

MASHG'ULOT

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tahsil olayotgan tinglovchilar hamda doimiy tarkib ishtirokida Amir Temur tavalludining 688 yilligi munosabati bilan seminar mashg'uloti tashkil etildi.



Tadbir davomida markaz ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash bo'limi katta ofitseri, leytenant A.Turdiyev tomonidan buyuk sarkarda Amir Temurning hayoti, harbiy yurishlari, taxt vorislariga vasiyati va pand-nasihatlarini hamda "Temur tuzuklari"ning mazmuni haqida tushunchalar berib o'tildi. Tadbir yakunida ishtirokchilar o'zlarining qiziqtirgan savollariga javob oldilar.

F.MAVLONOV,
FVV BT va MOM kadrlar bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.

MAS'ULIYAT VA BURCH

Barchamiz yong'in sodir bo'lganda uni bartaraf etish bo'yicha bilimlarga ega bo'lishimiz, bu boradagi bilimlarni targ'ib qilishda faollik ko'rsatishimiz lozim.

Yong'in-texnik komissiyasi tarkibiga bosh mutaxassislar, muhandis-quruvchilar, mehnat muhofazasi bo'yicha muhandis va ko'ngilli yong'in o'chirish drujinasining boshlig'i kiradi.

Komissiya bino va inshootlardan foydalanishda yong'in muhofazasi qoidalari amal qilinishini, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni, texnikalardan foydalanishdagi yong'in muhofaza holatini tekshirib boradi hamda tegishli choralar ko'radi.

Bilimlarni joylarda keng targ'ib qilish, yong'in xavfsizligiga bag'ishlangan uchrashuvlar, davra suhbatlari va ko'rgazmali namoyish tadbirlarini tashkil qilish bu borada kutilgan samaralarni beradi. Buning uchun nafaqat soha mutasaddilari, balki har birimiz faol bo'lishimiz, bu kabi tadbirlarda samarali ishtirok etishimiz dardkor.

S.ABDULLAYEV,
Prezident Administratsiyasi binosida
YOXTTE 1-bo'linmasi
kichik inspektori, kichik serjant.

O'QUVCHILAR UCHUN

Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi 9-umumta'lim maktabida "Yong'indan ogohlik" umummilliy kampaniyasi doirasida "Fuqaro muhofazasi" kunlari bo'lib o'tdi.

Viloyat FVB tomonidan tashkil etilgan ushbu tadbirda tuman FV bo'limi mutaxassislari tomonidan maktab o'quvchilariga favqulodda vaziyatlar va yong'inlar, ularning yuzaga kelish sabablari, Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, botulizm, is gazidan zaharlanish, quturish kabi kasalliklarning oldini olish, zilzila va yong'inlar vaqtida to'g'ri harakat qilish borasidai tushuntirish-targ'ibot ishlari olib borildi.

Yong'in-qutqaruv asbob-anjomlari ko'rgazmasida o'quvchi-yoshlar yong'in qutqaruvchisiga tegishli bo'lgan maxsus kiyim-bosh va asbob-anjomlardan foydalanish tartibini o'rganidilar.

Sobir BOBOYEV,
Vobkent tumani FV bo'limi katta inspektori, kapitan.



MARKAZ TASHABBUSI

Nurafshon shahar Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchilari tomonidan Toshkent viloyati, shahar va tumanlardagi mahalla fuqarolar yig'inlarida "Is gazidan zaharlanishning oldini olish profilaktikasi", "Gazdan chaqnash bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish", "Botulizm kasalligi, uning kelib chiqish sabablari", "Yong'inlarning oldini olish", "Sel, suv toshqinlarining oldini olish va muhofaza tadbirlari" hamda "Zilzila vaqtida aholini to'g'ri harakat qilishga o'rgatish" mavzularida seminar, uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazildi.

I.MIRALOV,
Toshkent viloyati Nurafshon shahar
HF XO'M katta o'qituvchisi.

UCHRASHUV

"IES" AJ "To'raqo'rg'on IES" filiali OYXTTEB tomonidan To'raqo'rg'on tumani 2-sektor hududidagi "Porosmon" MFY 2-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan uchrashuv tashkil etildi.

Mazkur tadbirda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yosh avlodni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlarga keng jalb etish, ularga mamlakatimizning buguni va ertangi kuni bilan bog'liq o'ta muhim vazifalar ishonib topshirilayotgani, dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotgani ta'kidlandi.

A.ABDUQODIROV, "IES" AJ "To'raqo'rg'on IES" filiali OYXTTEB katta inspektori v.v.b, kapitan.
V.VALIJONZODA, OYXTTEB inspektori, leytenant.



HAMKORLIK

Shuningdek, davlat tasarrufidagi obyektlarning yong'iniga qarshi holati tekshirilib, tadbirkorlik subyektlarining 12 tasi yong'in-profilaktik ko'rigidan o'tkazildi va 10 tasining yong'iniga qarshi holati tekshirilib, qoidalarni muntazam ravishda buzib kelayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rildi.

Konisbay BEKMURATOV,
Chimboy tumani FV bo'limi
katta inspektori, kapitan.

QUTQARIB QOLINDI

Urgut tumanidagi "Shir-bog'ota" ziyoratiga kelgan 2007-yilda Urgut tuman "Yuqori Sanchiqui" MFYda tug'ilgan T.D. hamda 2007-yilda Pastdarg'om tumanida tug'ilgan M.A. taxminan soat 17:00 lar atrofida toqqa chiqib, yo'ldan adashadi. Natijada, tog'da yurib-yurib, katta jarlikka tushib qolishadi va tuman FV bo'limiga xabar berishadi. Shu zahoti bo'lim xodimlaridan qism boshlig'i podpolkovnik U.Ruzimurodov, kichik serjant U.Suvonov, oddiy askar U.Jo'raqulovlar voqea joyiga yetib borib, qidiruvni boshlaydilar. Jarlikda

qolgan bolalar bilan telefon aloqasi borligi, lekin bolalar turgan joyini aniq aytolmaganligi, ustiga-ustak qorong'u bo'lgani uchun qidirib topishda qiyinchilik yuzaga keldi. Nihoyat, bola-

lar ertasi kuni tong saharda 4:00 lar atrofida tog'ning 2000 metr balandligidagi jarlikdan sog'-salomat topildi va qutqarildi.

B.TURDIYEV,
Urgut tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, katta leytenant.



Маърифат соати

КЕКСАЛАРНИ ЭЪЗОЗЛАШ – АЗАЛИЙ ҚАДРИЯТ



Халқимиз кексалар тимсолида турмушнинг файзу баракиси, қувончу шодлигини кўришга одатланган. Ёши улуг, нуруний кексаларимиз умримиз чароғонлари, уларнинг пурмаъно маслаҳат ҳамда ўғитлари ишларимизнинг унумдорлигини ошириб, ҳаётимизни безаб келган. Бундан кўринади, ҳар бир инсон ўзидан каттани эъзозлаши, оғирини енгил қилиши зарур. Ёши бир жойга бориб қолган инсоннинг қилган меҳнати қадр топиши катта бахт. Хонадонимиз тўрида савлат тўкиб ўтирган нурунийлар ҳамиша фарзанду набираларини дуо қиладилар. Уларнинг эришган ютуқларидан, амалга оширган эзгу ишларидан жуда қувонадилар.

Ёши улуг отахону мўътабар онахонларимизни эъзозлаш ва уларни қадрлаш, ҳурматини ўрнига қўйиш бизнинг узоқ асрлик урф-одатларимиз, миллий анъаналаримиз ҳамда яшаш тарзимизнинг ажралмас бир бўлагига айланган, десак муболаға бўлмайди. 2019 йилдан бошлаб, ҳар йили октябрь ойининг биринчи ҳафтаси республикамизда “Кексалар ҳафтаси” этиб белгиланди. Ушбу ҳафталик доирасида “Кекса авлод – оилавий ажримларга қарши”, “Қариси бор уйнинг париси бор!” каби мавзуларда аҳоли ҳамда ёш авлод билан давра суҳбатлари ташкил қилинмоқда. Қолаверса, ФВВ Фахрийлар марказий кенгаши аъзолари томонидан ҳам барча маҳаллаларда нурунийлар, шу жумладан, “Саховат” ва “Мурувват” уйларида истиқомат қилаётган кексалар қалбига қувонч бахш этиш учун маданий-маърифий тадбирлар ташкил этилмоқда. Кексалар учун ташкил этилган турли маданий тадбирлар ҳамда сайёр тиббий кўриклар эса кўпни кўрган отахону онахонларни бениҳоят қувонтирмоқда. ФВВ ҳамда унинг қуйи тизимларида “Уч авлод учрашуви тез-тез ўтказилиб турилмоқда”. Бундай тадбирларни ташкиллаштириш ёш авлодни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялашда беқиёс аҳамиятга эгадир. Чунончи, юртимизда тинчлик ҳамда осойишталикни мустаҳкамлашда, Ватанимиз мавқеининг юксалишида ёши улуг инсонларнинг ўрни беқиёсдир. Ақлли ва билимдон ёш авлод кекса инсонларни эъзозлаб, уларга ҳурмат-эҳтиром кўрсатмоқда. Айниқса, ташкил этилаётган маданий тадбирлардан завқланган кексаларимиз инсон қадри баланд юртда яшаётганидан фахрланишиб, юртимиз тинч, ҳаётимиз фаровон бўлишини тилаб

дуолар қилишмоқда. Уларнинг қилган хайрли дуоли ҳаётимиз, оилаларимиз, Ватанимиз ҳамда йўлимизни нурафшон этиб туради ва эзгу ишларга ундайди.

Ёши улуг инсонларга бўлган бу ҳурмат, иззат-икром халқимизнинг қон-қонига сингиб кетган. Шу боисдан ҳам бу анъана бугунгача бардавом. Кексаларни ва ўзидан катталарни эҳтиром қилиш ўз қадр-қимматини билган ҳар бир жамиятнинг энг аҳамиятли қадриятларидан бири ҳисобланади. Қадриятларимизнинг бебаҳо кўринишларидан бири – бирдамлик, ҳамжиҳатлилик билан ўтадиган тўй ва маъракаларни бир кўз олдимишга келтирайлик. Давранинг тўрида ўтирадиган боболаримиз, супра бошида ун элаб, хамирга қўл солиб берадиган нуруний бувиларимизнинг ҳар бири айтадиган сўзлари, ибратли гаплари даврадаги ёшлар учун бир хазинадек бўлиб келган.

Бугун мамлакатимизда ёши улуг, жамият тараққиётига озми-кўпми

ҳисса қўшган кексалар алоҳида ардоқланмоқда, ғамхўрлик кўрсатилмоқда. Чунки бу анъана ҳам асли қадрият, меҳр-муҳаббатнинг мезонидир. Юртимизда нурунийларга алоҳида ҳурмат-эҳтиром кўрсатилаётганлиги, уларнинг саломатлигини асраш ва ҳаётини тажрибаларидан унумли фойдаланиш келажагимиз эгалари бўлмиш ёшларимизнинг порлоқ келажагини таъминлашга ҳам хизмат қилади.

Қадрият сўзи алоҳида эътибор ва эъзозга эга бўлган одат маъносини англатар экан, у бир халқ ичидан эмас, барча халқлар томонидан эътироф этилса, олий мақом касб этади. Мамлакатимизда яшаётган ҳар бир инсон қалбидан инсонийлик, меҳр-мурувват, бағрикенглик каби ижобий хислатлар жой олган. Кексалари улуғланган юртда барака бўлади, дейди доно халқимиз. Кексаларни эъзозлашдек азалий қадрият халқимизни жипслаштириш, одамлар орасида меҳр-оқибат ҳамда ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаш, турли миллат вакилларининг аҳил-иноқ яшашига хизмат қилиб келган. Катталарга ҳурмат, кичикларга иззат кўрсатиш улуғлангани боис жаҳон аҳли бизга ҳавас билан қарашмоқда. Улкан ишлар ва улуг мақсадлар йўлидаги саъй-ҳаракатларимизни нурунийларнинг маслаҳати, дуолари билан бошлаймиз, уларнинг ҳаётини тажрибаларига таянамиз.

Ана шу қадрият, олийжаноб фазилат бугун давлатимиз сиёсатида ҳам ўз ифодасини топганлиги барчамизга маълумдир. Бугун мамлакатимизда

мизда ёши улуг, жамият тараққиётига озми-кўпми ҳисса қўшган кексалар алоҳида ардоқланмоқда, ғамхўрлик кўрсатилмоқда. Чунки бу анъана ҳам асли қадрият, меҳр-муҳаббатнинг мезонидир.

Кексаларни қадрламаган, ҳақ-ҳуқуқларига риоя қилмаган инсон бу дунёда обрў топмайди, қариганида ҳурмат-эҳтиромга, иззат-икромга сазовор бўлмайди. Бир умр меҳнат қилиб, яхши фарзанд тарбиялаб, эл-юрт қорига яраб яшаётган ҳар бир инсон кексайганида ҳурмат-иззат кўриб, эъзозланиб, ҳаётдан рози бўлиб яшашга ҳақлидир.

Ҳазрат мир Алишер Навоий “Ҳайрат-ул аброр” достонида шундай ёзадилар:

Кимки улугроқ,

анга хизмат керак,

Улки кичикроқ,

анга шафқат керак.

Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, ёш авлод турмуш синовларида тобланиб, катта ҳаётини тажрибага эга бўлган, теран ақлли, тақволи, улуг кишилар кўмаги ва маслаҳатига доим эҳтиёж сезади. Меҳнатсевар, ҳалол-поқ, диёнатли, эл иши учун фидойи инсон бўлиб улғайишни истаган ҳар бир ўғил-қиз кексалар ҳаётини тажрибасидан, албатта, фойдаланишлар лозим. Шунинг учун ораимизда катталарнинг борлиги улуг неъматдир. Нурунийларнинг саломатлигини асраш, ҳаётдан рози бўлиб, узоқ умр кечиришини таъминлашда уларга кўрсатилаётган замонавий тиббий-профилактика, диагностика ва даволаш хизматлари муҳим ўрин тутмоқда. Кексалар ҳолидан хабар олиш, уларни белгиланган муддатларда чуқурлаштирилган тиббий кўриқдан ўтказиш, ўз вақтида соғломлаштириш, хонадонларда тиббий-патронаж ишларини юқори савияда ташкил этиш борасида тизимли ишлар амалга оширилаётганидан уларнинг кўнгли шод. Ёшларимиз нурунийни кўрса, қўли кўксидан, саломга шай, хизматга тайёр туради. Маслаҳати-ю, панд-насихатига лаббай, дейди, танбеҳига доим қўлоқ тутади. Уйининг дастурхонининг тўрини ёши улугларга атайди. Айниқса, ёш авлоднинг кексаларга ҳурмат-эҳтиром кўрсатиши, ота-онасини бениҳоят эъзозлаши асрлар синовидан ўтган маънавий қадриятларимиздандир.

Саҳифани “Vaziyat”
мухбири Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлади.



Турфа олам

ҲАЙРАТЛАНАРЛИ ФАКТЛАР

1. Нимага таиландликлар Р ҳарфини тушириб қолдиришади?

Бир оз ғалати эшитилса-да, таиландликлар Р ҳарфини умуман ишла-тишмайди. Яъни, сўз орасида ушбу ҳарф келиб қолса, уни шунчаки туши-риб қолдиришади.

Гап шундаки, таиландликларнинг 95 фоиздан юқориқ қисми ушбу ҳарфни талаффуз қила олишмайди. Шу сабабдан ҳам уни шунчаки туши-риб қолдиришади. Масалан, тарвуз сў-зини тавуз каби талаффуз қилишади.

2. Нимага тунда кўриш қобилия-тимиз ёмонлашади?

Кеч тушиши билан кўриш қоби-лятимиз бир неча баробарга ёмон-лашади. Фақатгина ой нури яхши тушсагина кўришимиз яна бир оз яхшиланади. Чунки кўзларимизнинг асосий қисмини ёруғликка таъсирчан хужайралар эгаллаган.

Бу хужайралар кўзнинг деярли барча қисмида бор. Улар кўриш учун энг муҳим ҳисобланади ва уларнинг фаолияти ёруғликка боғлиқ. Яъни, ёруғлик таъсирида яхши ишлайди ва акси бўлса, ёмонлашади. Шу сабаб-ли ҳам кечкурун кўриш қобилиятимиз ёмонлашади.

3. Нимага Америка «Носоғлом ичимликлар макони» деб юритила-ди?

Турли газеталарда ва ҳаттоки, ай-рим машҳур журналларда Америка «Носоғлом ичимликлар макони» дея тилга олинади. Бунга сабаб Америка-даги ичимликларда шакар миқдори-нинг кўплиги.

Қизиқ жиҳати шундаки, Америка-да оддий ичимлик сувидан ташқари деярли барча ичимликлар таркибида шакар бор. Ҳаттоки, уларнинг айрим-ларида шакар миқдори меъёрагидан ҳам юқориқ. Бу эса соғлом овқатла-ниш нормаларига зид. Шу сабабдан ҳам Америка «Носоғлом ичимликлар макони» деб юритилади.

4. Нимага ухлаётганда бошни ёстиққа қўйиб ухлаш керак?

Узоқ йиллардан бери ёстиқ одам уйқусининг ажралмас бир қисмига ай-ланган. Бу оддий бир тасодиф эмас, балки тиббиётда фойдали деб топил-ган жиҳатдир. Чунки ёстиқда ухлаш-нинг бир неча фойдали томонлари бор.

Биринчидан, ёстиқ билан ухла-ганда умуртқамиз текис ҳолда бўлади ва у билан боғлиқ кўплаб касаллик-ларнинг олди олинади. Бундан ташқа-ри, ёстиқ бошимизни танамиздан кўра баландроқда бўлишини таъминлай-ди. Натижада мияда қон айланиши бир меъёрада қолади ва уйқу сифатига таъсир ўтказмайди.

5. Нимага овозимиз ёзиб олин-ганда бошқача эшитилади?

Овозимизни диктофон ёки теле-фонда ёзиб олиб эшитганимизда худ-ди бировнинг овозидек эшитилади. Лекин ёзиб олиш жараёнида овози-мизга ҳеч қандай ишлов берилмайди.

Гап шундаки, ўзимиз гапираётган пайтимизда товушимизни паст теб-ранишда эшитамиз. Ёзиб олинган товушлар эса нисбатан юқори теб-ранишда етиб келади. Ушбу фарқ ҳи-собига ёзиб олинган овозимиз худди бизники эмасдек эшитилади.

6. Нимага қоғоз асосан оқ рангда бўлади?

Ҳозирги кунда қоғознинг 20 дан ортиқ рангдаги турлари ишлаб чиқа-рилади. Лекин улар орасида энг кўп тарқалгани бу оқ рангли қоғоз ҳисоб-ланади. Бунинг иккита сабаби бор.

Биринчидан, одамлар оқ рангни юқори сифат ва мукамаллик тим-соли, деб ҳисоблашади. Иккинчидан, ишлаб чиқариш жараёнида қоғоз сифатини бузувчи лигнин моддаси ажратиш ташланади. Бу модда эса қоғозга ранг берувчи энг асосий пиг-мент саналади.

7. Нимага камалакда 7 та ранг мавжуд?

Ажойиб табиат ҳодисаларидан бири бўлган камалакда 7 та ранг бўлади. Бунга сабаб эса куёш нур-лари ўз ичида ушбу ранглари му-жассамлаштирган бўлади.

Камалак юзага келишига сабаб эса атмосферадаги сув заррачала-рига тушган куёш нурларининг сини-шидир. Синиш натижасида спектрум ҳодисаси рўй беради. Яъни, ранглари ажралиб чиқади ва камалак вужудга келади.

8. Нимага осмон кўк рангда бўлади?

Кундуз кун осмон кўзимизга кўк рангда кўринади. Айримлар эса ос-мон рангсиз ва бизнинг кўзимизга шунчаки кўк рангда кўринади дейди. Лекин бу унчалик ҳам тўғри эмас.

Осмонда ростдан ҳам кўк ранг нурлар атмосферадаги газлар ва бошқа заррачаларга урилиб синади. Натижада, нурдаги ранглари ажра-либ чиқади. Куёш нурларида энг кўп тарқалган ранг кўк бўлгани учун ос-мон кўк рангда кўринади.

9. Нимага йўловчи ташувчи са-молётлар асосан оқ рангда бўла-ди?

Йўловчи ташувчи самолётлар оқ рангда бўлишига энг асосий сабаб, бу – оқ ранг куёш нурларини яхши қай-таришидир. Яъни, оқ рангли самол-ёт куёш таъсирида бошқа ранглари нисбатан тезда исиб кетмайди.

Самолётларни бўяш учун оқ рангдан фойдаланишга яна бир сабаб эса оқ ранг куёшдан келувчи ультра-бинафша нурларини яхши қайтаради.

Шаҳризода ҚҮЛДОШЕВА
тайёрлади.

ЎЗЛИГИНГНИ УНУТМА!

Саховатли куздексан,
Ёзилмаган сўздексан,
Унутилмас ўзбексан,
Ўзлигингни унутма!

Кўкда бургут кучсанг ҳам,
Оппоқ булут кучсанг ҳам,
Самоларда учсанг ҳам,
Ўзлигингни унутма!

Оддий бўл, керилмагин,
Савобга эринмагин,
Дунёга берилмагин,
Ўзлигингни унутма!

Ойга кафтинг урсанг ҳам,
Чўғ устида турсанг ҳам,
Қай манзилда юрсанг ҳам,
Ўзлигингни унутма!

Ҳаволанма, бойман деб,
Қоши камон ёйман деб,
Кўп ўзинга берма зеб,
Ўзлигингни унутма!

Яхшилик қилгин ҳар вақт,
Эрталаб тургин барвақт,
Ўтган ҳар он ғанимат,
Ўзлигингни унутма!

Бутун бўлсин иймнинг,
Метин бўлсин виждонинг,
Саломат бўлсин жонинг,
Ўзлигингни унутма!



ТУРОН ЭЛИН ФАРЗАНДИМАН!

Шу халқнинг тупроғин сурай кўзимга,
Мадҳ этайин жило бериб сўзимга,
Баъзида ҳавасим келар ўзимга,
Турон элин фарзандиман мен...

Томирида қони шиддат-ла урган,
Тўмариснинг қони унда юрган,
Темур бўлиб, зўр обидалар қурган,
Турон элин фарзандиман мен...

Момоси тунлари аллалаб ётган,
Тонг сахардан яна кучиб уйғотган,
Бу халқнинг тонглари ўзгача отган,
Турон элин фарзандиман мен...

Ўзига бек ўлка номи ҳам улуг,
Бу юртда ҳар гиёҳ жони ҳам улуг,
Боболари буюк, қадами кутлуг,
Турон элин фарзандиман мен...

Алплар энг шимариб қурган ўлка бу,
Сарҳадларда мардлар турган ўлка бу,
Ҳар инсон ардоқда юрган ўлка бу,
Турон элин фарзандиман мен...

Гулсанам ШОДИЕВА,
Нишон туманидаги
26-мактаб ўқувчиси.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЙОНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба кунини чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
М. ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик халқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун – 382

Газета "BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6000 нусха